



THE ROLE OF DIALECTS IN THE KIPCHAK DIALEKT

Telmanova Aziza

2nd year master's at student at the Faculty of Philology of Sharof
Rashidov Samarkand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695195>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Kipchak dialect,
dialectisms, phonetic
phenomena, dialect-
specific cognates.

ABSTRACT

This article provides information on the lexical and grammatical features of the Kipchak dialect. It also provides and analyzes examples of words specific to the Kipchak dialect and kinship terms used in the Kipchak dialect.

РОЛЬ ДИАЛЕКТОВ В КИПЧАКСКОМ ДИАЛЕКТЕ

Телманова Азиза Кахрамон кизи

Студент 2 курса магистратура филологического факультета Самаркандского
государственного университета имени Шарофа Рашидова

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695195>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Кипчакский диалект,
диалектизмы,
фонетические явления,
диалектно-
специфические
когнаты.

ABSTRACT

В статье дается информация о лексических и грамматических особенностях кипчакского диалекта. Также приводятся и анализируются примеры слов, характерных для кипчакского диалекта, и термины родства используемые в кипчакском диалекте.

QIPCHOQ LAHJASIDA SHEVALARNING TUTGAN O'RNI

Телманова Азиза Кахрамон кизи

Студент 2 курса магистратура филологического факультета Самаркандского
государственного университета имени Шарофа Рашидова

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695195>

ARTICLE INFO

Received: 13th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Qipchoq lahjasi,
dialektizmlar, fonetik
hodisalar, shevaga xos

ABSTRACT

Ushbu maqolada qipchoq lahjasining leksik-grammatik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, qipchoq lahjasiga xos so'zlar va qipchoq lahjasida qo'llaniladigan qarindosh-urug'chilik atamalaridan misollar keltirilib, tahlil qilingan.



*qarindosh-urug'chilik
so'zlari.*

Sheva – tilning ma'lum bir hududdagi aholisi tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan tarmog'idir. Lahja esa shevalarning kengroq to'plami bo'lib, bir guruh shevalarni o'z ichiga oladi. Mazkur atama ba'zan tor ma'noda, ya'ni sheva ma'nosida qo'llanilishi ham uchraydi. O'zbek tilining asosiy lahjalari qarluq-uyg'ur, qipchoq va o'g'uz lahjalari hisoblanadi. Qipchoq lahjasi asosan O'zbekistonning Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlari, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoning ayrim hududlarida keng tarqalgan. Qipchoq urug'lari eng qadimgi urug'lardan biri hisoblanadi. "Devonu lug'otit turk" asarida Mahmud Koshg'ariy o'z davrida katta mavqega ega bo'lgan *bajanak, o'g'uz, yamak, bashg'irt, basmil* kabi 20 til ichida qipchoq tilini ham qayd etib o'tadi. Qipchoq urug'lari va tili xususida "Attuhfatuz zakiyati fil lug'otit turkiya" (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob kitob)da ham qimmatli tarixiy lingvistik ma'lumotlar mavjud. Ushbu asar XIII-XIV asr yodnomasi hisoblanadi. Alisher Navoiy davrida ham qipchoqlar ancha katta mavqega ega bo'lgan. Buni shoirning quyidagi bayti ham yaxshi isbot qiladi:

Ey Navoiy, menga bas ul sanami lo'livash,
Bekka qirchoqu og'ar, shohga qiyotu bilgut.

Ushbu baytdan *qipchoq, qiyot, bilgut, og'ar* singari o'zbek urug' va qabilalarining shoh va beklarga yaqin turuvchi mansabdor urug' va qabilalar ekanligiga ishora qilinganligini anglab olish mumkin. "Shajarai turk" asarida Abulg'ozi Bahodirxon "Qipchoq" etnonimi haqidagi ma'lumotni keltiradi. O'zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug'-qabila guruhi vakillarini o'z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qangli, laqay, uyshin, qoraqalpoq, saroy, qo'ng'irot, qiyot, do'rmon, arg'in, xitoy, tuyoqli* kabi ko'pgina urug'-qabilalar bor. O'zbek xalq baxshilarining aksariyati qipchoq lahjasida so'zlashuvchilardir. Qipchoq lahjasining lingvistik xususiyatlari G'ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, M.Mirzaev, X.Doniyorov, F.Abdullaev, A.Shcherba, N.Rajabov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. G'ozi Olim Yunusov bu guruhga kiruvchi sheva vakillarini alohida ko'rsatadi. Bu lahjada so'zlashuvchi o'zbeklar Ohangaron vodiysida, O'ratepa atrofida, Mirzacho'lda, Samarqand, Buxoro kabi joylarda yashaydi. Shuningdek, Qoraqalpog'istonning Qipchoq, Qo'ng'irot, Chimboy tumanlarida, Tojikistonning Laqay va Qo'rg'ontepa va Kulob atrofida, Afg'onistonning shimoliy qismida istiqomat qiladilar. E.D.Polivanov ham "Qozoq-nayman shevasi" nomli maqolasini qipchoq lahjasining xarakterli xususiyatlarini bayon etishga bag'ishlagan. Maqolada qozoq-nayman shevasini kuzatishdan hosil bo'lgan xulosalar umumlashtirib berilgan. Muallif tomonidan olg'a surilgan fikrlar so'nggi yillardagi kuzatishlar natijasida o'zini oqlamoqda. Samarqand viloyatidagi qipchoq, qarluq-chigil-uyg'ur shevalarini o'rganishda olimning asarlari qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Qipchoq lahjasi haqida ayniqsa, Xudoyberdi Doniyorovning qarashlari alohida ajralib turadi. Xudoyberdi Doniyorov qipchoq etnonimi haqida ham fikr yuritgan. Olim qipchoqlarni o'zbek xalqining shakllanishida asosiy komponentlardan biri deb qaraydi va o'zining "O'zbek xalqining shajara va shevalari" nomli kitobida qipchoqlar haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Xudoyberdi Doniyorov qipchoq lahjasining tildagi o'rni masalasini "O'zbek tilining baxmal shevasi" (nomzodlik dissertatsiyasi), "Samarqand oblastidagi qipchoq



shevalarining vokalizimi”, “O‘zbek adabiy tili rivojlanishida qipchoq (“j-lashgan) shevalarining roli” kabi bir qator ilmiy ishlarida isbotlab berdi. Olim o‘zbek tilining qipchoq lahjasini tahlil qilish asosida adabiy tilda ham to‘qqiz sof unli tovushlar mavjud ekanligini, faqat uning harfiy belgisi yo‘qligini, navbatdagi muhim vazifa ana shu tovushlarning harfiy belgisini berish kerakligini aytib o‘tadi. Ikkinchi masala esa adabiy til xalq tili jozibasini o‘zida mujassamlashtiradi. Uchinchidan, imlodagi chalkashliklar birmuncha tugatilib, savodxonlik yaxshilanardi. Xudoyberdi Doniyorov qipchoq lahjalaridagi sof unli tovushlar haqida o‘z fikr va xulosalarini bayon etar ekan, ayni vaqt grafemalar-yarim unlilar deb ataluvchi belgilarga ham munosabat bildiradi. U qishloq shevasiga tayangan holda o‘zining kuzatishlari natijasida juda katta ilmiy meros qoldirdi. Mazkur lahjada so‘zlovchilar Ohangron vodiysida, Mirzacho‘lda, O‘ratepa atrofida, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxandaryo va Shimoliy Xorazm kabi joylarda yashaydilar. Bu lahja vakillari Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida ham uchraydi. Olimning 1976-yilda “Eski o‘zbek adabiy tili va qipchoq dialekti”, 1979-yilda esa “Qipchoq dialektining leksikasi” nomli asarlari nashr qilingan.

Qipchoq guruhidagi shevalarning ba‘zi o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) ohangdoshlik hodisasi saqlangan: (ko‘nglim), *qiliq* kabi;
- 2) adabiy tildagi **y** undoshi o‘rnida **j** undoshi keladi: *yeydi-jeydi, Yomon-joman, yurdi-jurdi, yo‘l-jo‘l, yig‘la-jila, yantoq-jantoq, yig‘iq-jig‘iq* kabi;
- 3) o‘nta juft unli mavjud: *ä-a, ü-u, ĩ-i, ö-o, e,o*;
- 4) adabiy tildagi va **g, g‘** undoshlari o‘rnida qipchoq lahjasida **y** tovushi keladi: *sigir-siyir, tegdi-tiydi, bog‘la-bayla* kabi;
- 5) **q** va **k** undoshlari so‘z oxirida tushib qoladi: *kichik – kichi, sariq – sari, tariq – tari* kabi;
- 6) diftong hodisasi mavjud: *echki – iechki, o‘rdak – uo‘rdak* kabi;
- 7) ba‘zi so‘zlarda so‘z boshida **h** undosh tovushi orrtiriladi: *ayvon – hayvon, arra – harra* kabi;
- 8) so‘z o‘rtasida **q** undoshi **g** ga o‘tadi: *oqar – ag‘ar, yoqar – yag‘ar, chiq – chig‘ib, quloq – qulag‘i* kabi;
- 9) so‘zda **q** va **g** undoshlari **v** tovushi bilan anglashinadi: *tog – tav, bog – bav, bug‘doy – buvday, ulug – uluv, o‘g‘li – uvli, og‘iz – aviz, sog – sav, og‘iz – oviz* kabi.

O‘zbek tili shevalaridagi fonetik hodisalar amalda, nutq vaqtida bo‘lib turadi, ya‘ni sheva vakillari tomonidan nutq jarayonida aytiladi. Shuningdek, har bir shevada tovushlarning tushishi va ortishi hodisalari tez-tez qo‘llanib turadi. Bu ham shevalarning o‘ziga xosligini anglatadi.¹ Tovush jarayonlari odatda tasodifiy hodisa emas, balki tilning eng go‘zal va hech kimga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatidir. Shu sababli tovush o‘zgarishlari, bir tomondan, so‘zlardagi ohangdoshlikni ta‘minlasa, ikkinchi tomondan so‘zlarning ichki tabiatini belgilaydi. Fonetik o‘zgarishlar barcha sheva va lahjalarda uchraydi. Qipchoq lahjasida bu kabi o‘zgarishlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, b fonemasi o‘zidan keyingi bo‘g‘indagi n tovushi ta‘sirida qipchoq lahjasida ba‘zan burunlashadi: *bunda-munda, bunday-munday* kabi, *g>v* hodisasi ham qipchoq lahjasi va qipchoq guruh turkiy tillariga xosdir. Og‘ir-

¹ T. J.Ernazarov, V.A.Karimjonova, M.S.Ernazarova, Sh.S.Mahmadiyev, K.G‘. Rixsiyeva O‘zbek dialektologiyasi.- Toshkent: Universitet, 2012.- B. 39.



ovur, tog'-tov, sog'misan-sovmisan. Bulardan tashqari qipchoq lahjasida g>y hodisasi ham mavjud: igna-iyna, egirmoq-iyirmoq, egin-iyin kabi.

N>M: o'n bir-o'mbir, ko'nmaydi-ko'mmaydi,
S>Ch: sochsa-chachcha,
S>Sh: pishsa-pishsha, qo'shsa-qo'shsha,
T>L: qatlama-qallama, qutlug' bo'lsin-qullug' bo'sin,
Z>Ch: qizcha-qichcha.
Z>S: tuzsiz-tussiz

Og'zaki nutqda ba'zi tovushlarning tushib qolish holati ham kuzatiladi. Bu bir tomondan qipchoq lahjasini boshqa lahjalar bilan ikkinchi tomondan ayrim turkiy tillar bilan umumiyligini ta'kidlaydi. So'zga qo'shimcha qo'shilishi natijasida ba'zan o'zakdagi tovush tushishi mumkin: ol+sak>osak, bo'lma>bo'ma. Qipchoq lahjasida ba'zi hollarda so'z oxirida undoshlarning tushish holati mavjud: qattiq-qatti, achchiq-achchi, quruq-quri kabi. Yuqoridagi o'zgarishga uchragan so'zlarni badiiy asarlarda ham uchratamiz. Masalan, Tog'ay Murodning Yulduzlar mangu yonadi asari tarkibida "Toboq-toboq palov suzildi". Bu gapda toboq-toboq birligi dialektal mazmun kasb etgan. Ya'ni aslida toboq emas, tovoq bu so'z, tovush almashishi hodisasi kuzatilgan. Shu asardan yana bir misol "Shukur qoboq-tumshuq qildi" bu gapda ham yuqoridagi gap singari tovush almashishi kuzatilgan. Tog'ay Murod asarlarida uchraydigan shevaga xos so'zlarning aksaryati qipchoq lahjasi elementlariga to'g'ri keladi.

Qipchoq lahjasida tovush jarayonlari juda ko'p. Agar ular til tarixi bilan qiyoslanganda, tadrijiy taraqqiyoti tahlil etiladigan bo'lsa, o'sha so'zning etimologiyasini ham aniqlasa bo'ladi. Misol sifatida hozirgi adabiy tildagi qovoq so'zining tarixiy taraqqiyotini tahlil qilamiz: qop+qoq>qopqoq>qopoq>qoboq>qovoq.

Qipchoq shevasida adabiy tilga va shahar shevalariga nisbatan arabcha, forsha, tojikcha so'zlar kamroq. Yana ulardan bir farqi bu o'zlashgan so'zlar aksar fonetik o'zgarishga uchragan holda ishlatiladi. Qipchoq lahjasi vakillari nutqida o'zlashgan so'zlarning ayrimlari qayta ishlanib, bu shevalarning leksik-stilistik tomondan rivojlanishini, rang-barangligini orttirishda imkoniyat beradi. Masalan, molchi, chorpoyli, shodmonlik va boshqalar. Albatta, qipchoq lahjasidagi so'zlarning asosini asl turkiy, asl o'zbekcha so'zlar tashkil etadi. Lahjadagi so'zlar soha bo'yicha adabiy til va boshqa lahjalar bilan umumiylik kasb etsa-da, ba'zan ularning o'ziga xos jihatlari ko'zga tashlanib qoladi. Qipchoq lahjasining tarmoq leksikasidagi eng boy va o'ziga xos atamalardan biri chorvachilik atamalaridir. Chunki qipchoq lahja vakillari qadim zamondan boshlab chorvachilik kasbi bilan juda jiddiy shug'ullangan. Shuning uchun bu lahjada chorvachilik mol turlari bilan bog'liq so'z va atamalar juda ko'p. Shuningdek, leksika sohasida: *qalpoq, jayron, jun, tuya, meng, chavgon, o'rtoq, dag'i, qut, el, quroq, qalqon, aynak, manglay, mahlay* (peshona), *bo'rk* (telpak), *emgak* (mehnat), *qo'noq, ko'lik* (transport), *mo'ncha* (hammom), *qangli* (ikki g'ildirakli arava) kabi leksik birliklar shu lahjaga tegishli so'zlardir. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida boshqa lahja va shevalar qatori qipchoq lahjasi ham muhim o'rin tutadi.

Qipchoq lahjasining morfologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) *u, bu, shu* olmoshlari qadimgi turkiy tildagi kabi *ul, bul, shul* tarzida talaffuz qilinadi;
- 2) jo'nalish kelishigidagi kelishik olmoshlari quyidagicha qo'llaniladi:



mag'an (menga), *sag'an* (senga), *ug'an* (unga) (Pastdarg'om tumani Qozoq qishlog'ida yashovchi aholi nutqida ishlatiladi) kabi;

3) aniq hozirgi zamon fe'li *-jatir/-jätir* va ba'zan *-vätir* kabi; qo'shimchalar bilan hosil qilinadi: *keläjätir*, *kelävätir* kabi;

4) kelasi zamon sifatdoshi *-tian/-tigän* kabi qo'shimchalar bilan yasaladi: *jazatig'an*, *kelätigan* kabi;

5) kelishik qo'shimchalari o'zak-so'zning qattiq va yumshoqligiga ko'ra

farqlanadi. Shunga muvofiq qaratqich kelishigining qo'shimchalari: *-ning/-niñ*, *-ni/-nī*, *-din/-dīn*, *-tin/-tīn* bilan ifodalanadi. Masalan, *atamdin qadri o'tti*, *attij jilavini mäkkäm üshlädi* kabi. Tushum kelishigi ma'nosi *-di/-dī*, *-ti/-tī*, *-ni/-nī* qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Bulardan *-ni/-nī* qo'shimchasi unli tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shib keladi: *tav iechkīsini üshläp aldi*, *atasini äytip keldi* kabi. *-di* va *-ti* qo'shimchalari unosh tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *pishakti qivip ketti*, *Kärimdī bazara jigar*. Ba'zan belgisiz ham qo'llaniladi: *suv ichip ke* (Suvni ichib kel) kabi. Jo'nalish kelishigi uchun *-a\ -gä*, *-a\ -ä*, *-qa\ -gä* qo'shimchalaridan foydalaniladi: *balag'a bir jash to'ldi*, *üyimä baranim jo'q*, *o'chaqqa o't qala* kabi. O'rin-payt kelishigi uchun *-da/-dä*, *-ta/-tä* qo'shimchalari qo'llaniladi: *däyräda* (daryoda), *qo'lda* (ko'lda), *qishta* kabi. Chiqish kelishigining qo'shimchalari *-tan/-tän*, *-dan/-dän* hisoblanadi: *payizdan* (poyezddan), *chumchuqtan* (chumchuqdan) kabi. 6) o'rin-payt kelishigi oldidan (*i)n* tovushi orttiriladi: *bashinda*, *qashinda* kabi.

Qipchoq lahjasida otlardagi ko'plik shakli *-lar*, *-nar* qo'shimchalari bilan hosil qilinadi: odamlar, kiyimnar, O'zbek adabiy tilida *-lar*.

O'zbek tili dunyodagi eng ko'p sheva va lahjalarga ega bo'lgan tillardan biridir. Vaqt o'tgan sari shevalar va adabiy tilimiz o'rtasidagi adabiy farqlar yo'qolib bormoqda. Ayniqsa, qipchoq lahjasidagi shevaga xos so'zlar unutilib bormoqda. Shu sababli tilimizning sheva va lahjalarini hozirgi zamon yangi tadqiqot usullari bilan tekshirish va sheva materiallarini to'plash ishini jadallashtirish lozim.

Xususan, o'zbek dialektologiyasi qipchoq lahjasida unutilib boradigan shevaga xos so'zlarni hozirgi kun talabiga muvofiq lug'at qilinishi zaruriyati tug'ilgan. Shevamizdagi so'zlarning ayrimlari qadimdan turmush tarzimizda qo'llanib, ommalashgan bo'lsa, ba'zilar vaqt o'tishi bilan arxaiklashib qolgan. Eng qiziq tomoni shevaga xos so'zlar yonma-yon joylashgan qishloqlarda ham bir-biridan fonetik va leksik jihatdan farq qiladi. Pastdarg'om shevasi qipchoq lahjasining bir qismi bo'lib, adabiy tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Biroq, ayrim fonetik va leksik xususiyatlari bilan qipchoq lahjasining boshqa tarmoqlaridan farqlanadi.

O'zbek shevalarining leksik tarkibida an'anaviy leksika asosiy o'rinni egallaydi. Shevalarning an'anaviy leksikasi hozirgi kunda asosan keksalar nutqi(tili)da qo'llanadigan so'zlar majmui bo'lib, ular sof leksik dialektal so'zlar hisoblanadi. Bizga ayonki, til egasi nutqi davomida qulaylik izlaydi, fikrini tez, oson va ta'sirchan yetkazish so'zlovchining asosiy maqsadidir. Shu sababli adabiy tildagi birliklar shevalarda o'zgarishga uchraydi. Ba'zi so'zlar faqatgina ma'lum bir hududda ishlatilib, adabiy tilda bo'lmasligi mumkin. Yana shevamizda shunday so'zlar, birliklar bor, ular adabiy tilda yo'q, ularni biz faqat badiiy tilda uchratamiz. Sheva bu-jonli xalq tili ba'zan shevadagi jozibadorlik va ta'sirchanlikni adabiy til yetkazib berolmaydi. Qipchoq lahjasi qozoq va qoraqalpoq tillariga yaqin turadi. Men Pastdarg'om



tumanining Qozoq qishlog'ida istiqomat qilaman. Qishlog'imiz aholisining ko'p qismi qipchoq lahjasida gaplashadi, shu o'rinda qishlog'imiz nomlanishiga izoh berib ketmoqchiman. Qadimda qishlog'imizda qozoq millati vakillari yashagan, yillar o'tib, ular bu yerlarni tark etgan. Biroq ularning ana'nalari, ba'zi urf-odatlar, shevasi, xattoki qiyofasi ham bu yerlik tub aholiga o'tgan. Shuning uchun ham qishlog'imiz Qozoq qishloq deb ataladi. Qishlog'imizda qozoqlarga qarindosh bo'lib, ular bilan aloqa olib boradigan kishilar ham uchraydi. Bundan tashqari qishlog'imizda qozoqlarga o'xshab tez gapiradigan, yuz tuzilishi o'xshab ketadigan insonlar ham bor, ular hatto qozoqlarning milliy taomi beshbarmoqni ham tayyorlashdi. Qozoqlar yashagan davrda ular bilan bog'liq maqollar ham yaratilgan. "Et yemagan qozoq, qozoq emas" kabi. Qozoqlar go'shtni et deydi. Balki yuqoridagilarning ta'siri natijasida tilimizga qipchoq lahjasi belgilari o'rtnashib qolgan. Qishloq aholisining katta qismi j-lovchi. Ulug' Tursunovning tasnifiga binoan Samarqand shahar, Pastdarg'om tumanidagi turkman shevalar y-lovchi guruhga kiritilgan. J-lovchi guruhga esa Pastdarg'om tumanining ko'plab qishloqlarini kiritgan. Shu bilan birga j-lovchi shevalarni sharqiy va g'arbiy guruhlariga bo'lib, Pastdarg'om tumani g'arbiy guruhga kiritilgan. Qipchoq shevalarida [i] tovushining qisqa qo'llanilishi, tushib qolish hollari ancha keng tarqalgan. Bundan tashqari qipchoq shevalarida [o] tovushi asosan birinchi bo'g'ida keladi, ikkinchi bo'g'ida kam hollarda ishlatiladi. V.V. Reshetov o'zbek tilining qipchoq shevalarida eliziya hodisasini birmuncha kengroq qo'llanilishini alohida ta'kidlaydi.² Qipchoq lahjasida qaratqichi kelishigi qo'shimchasi bir qancha ko'rinishga egadir. Belgisiz ham ishlatilishi qipchoq lahjasida mavjud: tav olchasi, g'o'za bargi kabi. Tumanimizda arab millatiga mansub bo'lgan aholi ham istiqomat qiladi. Ularning shevasi ham j-lovchi, a-lovchi: yuring-juring, yotibdi-jotibdi, bola- bala, xola-xala, yig'lamang-yilamang kabi. Pastdarg'om tumanida istiqomat qiluvchi aholi vakillarining ko'pchiligi qipchoq lahjasida gaplashadi. Hudud shevasini kuzatishlarimiz natijasida adabiy til va tuman shevasidagi so'zlarning o'zaro yaqinligi va leksik-semantik farqlariga guvoh bo'ldik va ayrimlari adabiy tilda uchramaydi. Buni quyidagi misollarning qiyosiy tahlilida ham kuzatish mumkin.

- **Havo** – adabiy tilda bu so'z boshqa ma'no ifodalaydi, Pastdarg'om shevasida esa havo yomg'ir so'ziga sinonim bo'ladi, ikkisi qo'llanaveradi. Yomg'ir kuni bilan tinmadi, havo kuni bilan tinmadi.
- **Gartak** – bu so'zning adabiy tildagi shakli ozgina, bu so'z ba'zida vodiy shevasi kabi jichcha tarzida ham qo'llaniladi. Gartak-ozgina, bu so'z sodda so'zga o'xshab ko'rinsa ham tarkibiy jihatdan yasama so'z sanaladi. Ya'ni narsaning qismi gard va ikkinchi qismidagi -ak qo'shimchasi -gina qo'shimchasining ma'nodoshi sifatida ishlatilgan. Bu so'z Pastdarg'om tumanida yashovchi o'g'uz lahjasi vakillari nutqida gartak shaklida ishlatilsa, qipchoq shervasida girtak tarzida qo'llaniladi. Qarluq shevalarida esa jinday, ditek shakli uchraydi.
- **Chovgum** – choy qaynatiladigan idish, Qozoq qishlog'ida bu so'z qo'llaniladi, choy damlanadigan idish choynak, qaynatiladigani chovgum sifatida. Adabiy tilda bunday farqlanmaydi.
- **Zinxona** – qoramollar saqlanadigan joy, molxona, sayisxona, bostirma kabi shakllari bor. Yuqoridagi so'zlarning barchasi bu hududda ishlatiladi. Adabiy tilda zinxona varianti yo'q.

² Murodova N., Allaberdiyev A. "O'zbek dialektologiyasi" fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Navoiy, 2008. - B.26.



- **Ashilon** – ovqatning qoldig'i, adabiy tilda yuvindi so'ziga to'g'ri keladi. Avvallari cho'ponlar iste'mol qiladigan ovqatga nisbatan ham qo'llanilgan. Ya'ni xalq vakillari ovqatlarini bir qismini cho'ponlarga ovqatlanish uchun berilgan, keng adirlarda bo'lgani uchun ham qolgan, sovuq ovqatlarni tanovvul qilishgan, shuning uchun bugungi kunda ishlatiladigan yuvindi so'ziga mos keladi.
- **Shatak** – bu so'zni eshitgan ko'plab insonlar birdan tushunmasligi, eshitmagan bo'lishi yoki oyoq kiyim ekanligini bilmasligi mumkin. Tapichka so'zi bilan almashtirilib qo'llaniladi. Qozoq qishlog'i shevasida har ikkisi ham ishlatiladi.
- **Quri** – bizga ma'lumki, shevaga xos so'zlar nafaqat predmetlar orasida, balki yuklamalar orasida ham uchraydi. Bu so'z adabiy tildagi faqat so'ziga to'g'ri keladi. Faqat Ahmad kelmadi, quri Ahmad kelmadi.
- **Ilmiq** – iliq so'zining o'zgarishga uchragan varianti.
- **Hardar** - qipchoq shevasida sinkopa hodisasi ya'ni urg'usiz bo'g'inlarda bir unlining tushib qolishi natijasida o'zgarishga uchragan so'z. Adabiy tilda xaridor.
- **Iynim** - qipchoq lahjasida dissimilatsiya hodisasiga uchragan so'z. Adabiy tilda egnim.
- Adabiy tilda ro'za, ro'mol so'zlari qipchoq shevalarida **o'ro'mol, o'ro'za** tarzida ishlatiladi.
- **Kurtik**- xamirli taom bo'lib, zog'ora undan tayyorlanadi. Bu so'zning bu tarzda nomlanishi unning sifatiga nisbatan olingan so'z va ovqatni iste'mol qilinishdagi o'ziga xos xususiyatiga nisbatan olingan bo'lib, kurt asos va -ik qo'shimchasidan hosil qilingan. Mazkur so'z qipchoq shevalarida shamol, chang-to'zon bo'lishi oqibatida qorning chuqur joylarga to'planib qolish jarayoniga nisbatan ishlatiladi.
- **Gijmish**- issiq non tandirdan uzib olinishi bilan to'g'ralib sariyog' qo'shilib tayyorlanadigan yegulik. Bu tez tayyor bo'ladigan yegulikni nega bunday nomlanishiga qizig'ib ko'rganmisiz. Nonga sariyog' qo'shilgandan keyin aralashtiriladi, g'ijimlab tayyorlanadi. Shuning uchun shu nomga ega. Bu yegulik boshqa lahjalarda xususan, qarluq lahjasida janjmich deb ataladi. Qipchoq shevalarida gijmish tarzida ishlatiladi.
- **Zaldori**- o'rik, qipchoq lahjasida ko'proq zaldori varianti ishlatiladi.
- **Tartanag**-o'rgimchak uyasi, ayollarning asosiy zararkunandasi, is varianti ham bor. Masalan, is bosibdi, tartanag bosibdi. Qipchoq lahjasida tartanag shakli ko'p ishlatiladi.

Adabiy tilimizni qon-tomiri bo'lgan shevalarni o'rganishimiz, ularning lug'atini tuzishimiz, zarur o'rinlarda amaliyotga olib kirib, qo'llash doirasini kengaytirishimiz lozim. Shuningdek, boshqa so'zlar va atamalarda ham qipchoq lahjasi bilan adabiy til o'rtasidagi munosabat, farqlar ko'zga tashlanadi: erish-noqulay, ters, chap, bo'ksa-sonning orqa qismi, jigi-suyaklarning tutashgan joyi va boshqalar. Yuqoridagi misollardan ko'plab keltirishimiz mumkin, negaki tilimiz juda boy til, ularni o'rganish, tahlil qilish bugungi kunda har bir tilni muqaddas bilguvchi inson oldida turgan muhim vazifalardandir. Xoh u shevashunos olim bo'lsin, xoh oddiy xalq, aholi vakili bo'lsin. Adabiy tilimizda so'zlar ko'p, ammo bo'shliqlar ham yo'q emas. O'sha bo'shliqlarni sheva so'zlari bilan boyitish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Dialektologik olimlardan Sh. Shoabdurahmonov ta'biri bilan aytganda, o'zbek shevalarida adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatiga ega minglab so'zlar bor. Muhimi jihati ularni adabiy til leksikasiga muvofiqlashtirish, me'yoriy lug'atlarga kiritish hamda xalqqa ommalashtirishdan iborat. Yuqorida biz qipchoq lahjasiga xos



so'zlardan ba'zilarini tahlilga tortdik, bu so'zlar adabiy tilda muqobili yo'q so'zlar bo'shlig'ini to'ldirishga xizmat qilsa ajab emas, albatta adabiy til leksikasiga munosib tarzda, muvofiq bo'lsa biz uchun ham katta xursandchilik bo'lardi. O'zbek tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tili leksik tarkibining ham asosiy qismini tashkil qiladi. Buni qarindosh-urug'chilikka oid so'zlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, qarindosh-urug' nomlari juda qadimgi davrlardan mavjud bo'lib ba'zi bir fonetik-semantik farqlarni hisobga olmaganda, urug'dosh tillararo umumiylikni tashkil qiladi. Qarindosh so'zi ilk bor Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at-it-turk" asarida (XI asr) uchrab, "bir qorindan tug'ilgan ikki bola" ma'nosidadir.³ Qarindosh-urug'chilik nomlari sheva, lahjalarida turli jihatlari bilan farqlanadi. Buni qipchoq lahjasidagi qarindosh -urug'chilikka oid so'zlar misolida ko'rib chiqamiz. Bizda onani *aya* deb atash ko'proq. Ba'zi joylarda *ena* deb atashadi. Otani deyarli ko'pchilik *dada* deb aytishadi. Buvini ana, buvani esa, bobo deb chaqirishadi. Ayrim kishilar onasini *opa* deb ham aytishadi. *Aya-shevaga oid so'z bo'lib, ona, oyi*. Ba'zi joylarda *tarbiyachi ayol*, ma'nosini ifodalasa, yana bir ma'nosi hurmat yuzasidan ayollarning nomiga qo'shib aytiladi yoki ayollar nomining tarkibiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, o'zidan katta ayollarga hurmat bilan murojaat qilishda ham ishlatiladi. I.Ismoilovning "Turkiy tillarning qavm-qarindoshlik terminlari" asarida ham bu terminga alohida to'xtalib, quyidagi ma'no ottenkalarini ko'rsatib o'tadi. Begona shaxslarga nisbatan murojaat formasi sifatida ishlatilishini ko'rsatib, shu murojaat qilinuvchining yoshi jihatidan bo'lgan farqlarga qarab qo'llaniladi. Ellik yoshdan oshgan ayollarga nisbatan *ona* deb murojaat qilish, ellik yoshgacha bo'lgan ayollar yoki o'zida qarilik alomatlari sezilmagan ayollarga nisbatan esa *aya* shaklida ishlatilishini aytadi. Pastdarg'om tumanida yashovchi qipchoq lahjasi vakillari bunday tarzda ishlatmaydi, ya'ni o'zidan kattalarga ona, aya deb murojaat qilmaydi. Aynan tuman hududida ishlatiladigan qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarni ko'rib chiqamiz:

Jezda (jezza) – *shevaga oid so'z bo'lib pochcha* ma'nosini ifodalaydi. Ayrim shevalarimizda **jezna, yazna** tarzda ifodalanib fonetik o'zgarishga uchragan. "O'zbek xalq shevalari" lug'atida *yezdä//yezzä//yeznä//yezdä* (Qipchoq) //jāznä (Buxoro, Samarqand) kabi shakllari uchraydi.

Ana – shevaga xos, ayrim joylarda **anna** deb ishlatiladi. Odatda, bu so'z buvi so'ziga teng keladi. Dadaning onasiga nisbatan ishlatiladi.

Katina – aslida bu so'z **katta ona**, xalq ichida fonetik o'zgarishga uchrab, shu tarzda ishlatiladi, buvi so'ziga teng keladi.

Katata – shevaga xos so'z bo'lib, **katta ota** bu so'zning dastlabki ko'rinishi, katata fonetik o'zgarishga uchragan shakli. Bobo, buva so'ziga teng keladi.

Momo - shevaga oid so'z bo'lib, ikki xil holatda qo'llaniladi. Birinchi, katta amakining xotini, ukalarining bolalariga momo bo'ladi. Masalan, mening dadamning akasini ayoli menga momo bo'ladi. Ikkinchisi yoshi ulug', katta kampirlarni xalq ichida momo deyishadi: Zinnat momo, Tosh momo, Sanavar momo kabi.

³Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1- том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 386.



Opcha – opacha tarzida ham ishlatiladi, bu soʻzning kelib chiqishiga toʻxtalsak, baʼzilar onasini aya emas opa deydi, agar oilada opasi boʻlib, ayasini opa deb chaqirsa, opasini opcha, opacha deb chaqiradi.

Checha- yanga, kelinoyi. Amaki, akalarimizning ayolini yanga, checha deb ataymiz. Bu soʻzlar ishlatishi bizda yoshga nisbatan farqlanadi. Checha yoshi katta ayollarga nisbatan ishlatilsa, yanga yoshi katta boʻlmagan ayollarga nisbatan qoʻllaniladi. Kelinoyi nisbatan kam ishlatiladi.

Chaqaloq- goʻdak, murgʻak, jujuq, chaqa, farzand, bola. Qipchoq lahjasida bola varianti eng koʻp ishlatiladi. Tumanimizda a-lovchi nutq vakillari boʻlgani uchun ular bala tarzida ishlatadi.

Qalliq- qayliq, yor, turmush oʻrtogʻ. Qipchoq shevasida (bizning qishlogʻimizda) qayliq, qalliq soʻzlari kam ishlatiladi. Yangi unashtirilgan yigit qizga nisbatan yor, unashtirilgan yigiting, unashtirilgan qizing kabi leksik birikmalar ishlatiladi. Xalq orasida yangi unashtirilgan qizlarni tabriklash maqsadida “qush qulluq boʻlsin” iborasi ishlatiladi.

Xullas, qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta hududga tarqalgan. Oʻzbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning toʻgʻriligini koʻrsatadi. Oʻzbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folkloristlar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Avloddan-avlodga oʻtib kelgan juda boy xalq ogʻzaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi oʻzbek xalqining milliy gʻururi hisoblanadi. Shu sababli aksariyat qismi qipchoqlardan boʻlgan oʻzbek xalq baxshilarining hayoti va ijodini oʻrganish oʻz navbatida qipchoq shevalarining xarakterli til xususiyatlarini har taraflama tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasi oʻz fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga koʻra oʻzbek adabiy tili normalaridan ham koʻp jihatlari bilan farq qiladi.

References:

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent: Navroʻz, 2016.
2. Doniyorov X. Oʻzbek xalqining shajara va shevalari. -. Toshkent :Navruz nashriyoti, 2017.
3. Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.Gʻ. Oʻzbek shevashunosligi. Oʻquv qoʻllanma. - Toshkent: Universitet, 2012.
4. Махмуд Кошғарий. Девону-луғотит турк, 1- том. –Тошкент: Фан, 1960.
5. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
6. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. Darslik.– Toshkent: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.